



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES



ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2026. Issue 1

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London , 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





Erkin Vohidov she'rlari matnida badiiy tasvir vositalaridan foydalanish mahorati

Sindarov Kaxramon Tolliboyevich

Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi.

Har bir yozuvchi va shoirning, xususan, o'z uslubiga va o'z o'rniga ega bo'lgan shoirning o'ziga xos tili bo'ladi. San'atkorning bunday o'ziga xos tili uning har xil usullarni, badiiy-tasviriy vositalarni, ayniqsa, til materiallarini qanday tanlay bilishda, qanday ishlatishda, ularni va ular orqali o'zi aytmoqchi bo'lgan fikrni, o'z g'oyasini o'quvchilar ommasiga qay darajada obrazli, aniq va ravshan qilib yetkaza bilishda ko'rinadi. Erkin Vohidov she'rlarida ko'p qo'llanilgan tilning tasvir vositalaridan biri bu jonlantirishdir. Jonlantirish usuli metaforaning bir turi sifatida og'zaki nutqda va badiiy matnlarda ham qadimdan qo'llanib kelinadi va unda imkonga xos qobiliyat va xususiyatlar hayvonlar, jonsiz predmetlar va tabiat hodisalariga mujassamlashtiriladi, aniqroq qilib aytganda, unga insonlarga xos so'zlash, fikrlash, his qilish xususiyatlari singdiriladi. Shoir Erkin Vohidov she'rlarida jonlantirish usuli quyidagi tarzda namoyon bo'ladi:

Ufqlarga qo'yib guldasta,
Tog' ortidan ko'tardi-da bosh,
Pastga boqdi cho'qqidan asta
Oltin qalam tutgan bir naqqosh.
Har nuqtaga sayqal berib u,
Vodiy uzra chizdi zar lavha.
So'ng quyosh deb imzo chekdi-yu
Tongotar deb qo'ydi sarlavha. (E.Vohidov)

Keltirilgan ushbu misralarda shoir "quyosh"ni xuddi inson singari harakatga keltiradi. Bu she'rda "quyosh"ga insonga xos bo'lgan xatti-harakatlar singdirilgan va "quyosh" "naqqosh"ga qiyos qilingan.

Bulutlarning etagida zar,
Amu uzra to'r tashlar quyosh.
Daryo sokin,
Uxlar to'lqinlar,
Uxlar qo'yib qirg'oqlarga bosh. (E.Vohidov)

Yuqoridagi misolimizda "bulutlar", "quyosh", "daryo to'lqinlari" jonlantirilgan.

Shoir she'rlarida qo'llangan tilning badiiy tasvir vositalaridan yana biri bu antitezadir. Antiteza grekcha "qarama-qarshi" so'zidan olingan bo'lib, bir-biriga zid tushuncha, fikr va hissiyotlarni ifodalashda, ularga qiyosiy tavsif berishda qo'llanuvchi tasviriy vositalardan biridir. Antiteza usulining shoir she'rlarida namoyon bo'lishini misollar yordamida ko'rib o'tamiz:

Ilm-u she'rda shoh-u sulton,
Lek taqdiriga qul,
O'z elida chekdi g'urbat,





Zor-u nolon o‘zbegin. (E.Vohidov)

Bu she’riy parchada o‘zbeklarning ilm-u ma’rifat, she’riyat maydonida doimo shoh, sulton bo‘lgani holda, o‘z taqdiriga qul bo‘lib kelganligi bayon etilib, “shoh” va “sulton” so‘zlari “qul” so‘ziga qarama-qarshi qo‘yilgan.

“Umrini oshiq hamisha

O‘tkazar orzu bilan”.

Oyning o‘n beshi qorong‘u,

O‘n beshi yog‘du bilan. (E.Vohidov)

Shoir ushbu misralari orqali oyning o‘n besh kuni qorong‘u bo‘lsa, o‘n besh kuni yorug‘ bo‘lishini aytib, “qorong‘u” va “yorug‘” so‘zlarini bir-biriga qarama-qarshi qo‘ymoqda.

Barcha shodlik senga bo‘lsin,

Bor sitam, zorlik menga.

Barcha dildorlik senga-yu,

Barcha xushtorlik menga.

Keltirilgan misolda “shodlik” so‘ziga “sitam” va “zorlik” so‘zlari qarama-qarshi qo‘yilgan. Bu o‘rinda antiteza orqali shoir she’rda til ravonligiga va fikrini lo‘nda bayon etishga erishgan.

Antiteza mumtoz adabiyotda tazod deb yuritilgan. Tazod so‘zi “zid qo‘yish”, “qarshilantirish” ma’nolarini ifodalaydi. Shu so‘z bilan ataluvchi she’riy san’at esa baytda ma’no jihatidan o‘zaro zid, qarama-qarshi bo‘lgan so‘zlarni qo‘llab, ta’sirchan badiiy timsollar, lavhalar yaratishni nazarda tutadi.

Bu dargohda hech tinmas g‘ul-u,

Bu dargohda hech so‘nmas chiroq.

Bunda yondosh shodlik va qayg‘u,

Bunda yondosh visol va firoq. (E.Vohidov)

Yuqoridagi misolimizda esa “shodlik” so‘ziga “qayg‘u” so‘zi, “visolga” “firoq” so‘zi qarama-qarshi qo‘yilmoqda. Bu so‘zlarning o‘zaro zid ma’nolarni ifodalagani, ularni qo‘llash orqali shoir voqelikni yorqinroq aks ettirganligini ko‘ramiz. Bu kabi she’rlarda antiteza usulidan foydalanish voqelikning turli tomonlarini to‘liqroq aks ettirishga yordam berish barobarida tildagi ravonlik va jozibadorlikni yana-da oshiradi.

Erkin Vohidov she’rlarida uchraydigan tilning badiiy tasvir vositalaridan yana biri bu takror usulidir. Takror orqali badiiy asar mualliflari tasvirlanayotgan voqea-hodisaga o‘quvchining diqqatini tortish va uni bo‘rttirib ko‘rsatish uchun badiiy asarlarda tovush va tovushlar, so‘z va so‘zlar yig‘indisini, gaplarni takror qo‘llab, urg‘uni kuchaytiradi, nutqqa keskinlik kiritadi. Takrorning Erkin Vohidov she’rlarida qo‘llanilishini misollar orqali ko‘rib o‘tamiz:

Shuncha shodlik, shuncha hayajon,

Shuncha ko‘zyosh va shuncha tug‘yon,

Shuncha umid va shuncha armon

Qanday sig‘ar uning bag‘riga?! (E.Vohidov)





Ushbu she'riy parchada shoir "shuncha" ko'rsatish olmoshini takror qo'llash orqali "shodlik", "hayajon", "umid", "armon" kabi tuyg'ularning ko'pligini ko'rsatmoqda va bu jarayonga o'quvchi diqqatini jalb etgan. Bu yerda "shuncha" ko'rsatish olmoshi takror qo'llanilishi nutqqa keskinlik bag'ishlab, ushbu voqelikni kuchaytirib aks ettirmoqda.

Asablar,

Asablar,

Asablar...

Sababsiz sochilgan g'azablar,

Gunohsiz chekilgan azoblar.

Ko'z yoshlar...

Bariga sabablar

Asablar, asablar, asablar. (E.Vohidov)

Yuqorida keltirgan misolimizda "asablar" so'zi takror holda qo'llangan. Bu takror qo'llash o'sha so'z, ya'ni "asablar" bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlarning kuchaytirilib ta'kidlanishiga xizmat qilgan.

She'rlar chamani keng,

Umrim ham uzoq,

Gullar terajakman quchoq va quchoq.

Ammo bir gul mening yuragimdadir,

Bir she'r yozmoq mening tilagimdadir.

Bu she'rni izlayman aqlimni tanib,

Bu she'rni kuylayman otashda yonib.

Bu she'r ishq bilan yashayman mudom,

Bu she'r ishq bilan ko'nglimda ilhom.

Bu she'rga band butun ezgu hislarim... (E.Vohidov)

Keltirib o'tgan misolimizda "bu she'r" birikmasi besh marta takror qo'llangan. Har takrorda ma'no kuchaytirilib "she'r"ga o'quvchining diqqatini butunlay jalb etgan. Shoirning mahorati shundaki, takrorlar hech qanday ortiqchalik qilmaydi, aksincha, she'r tilining ravonligini, jozibadorligini oshirib, ma'no mundarijasini yanada kengaytirib boradi. Har bir so'z ikkinchi bor takror qo'llanganda yangicha ma'no, yangicha mohiyat kasb etib keladi va bularning barchasi shoirimizning so'z tanlashdagi, so'z qo'llashdagi, so'zga bo'lgan yuksak mas'uliyati va beqiyos iqtidori tufayligina yuzaga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Rixsiyeva G. Lingvopoetik tadqiq asoslari bo'yicha mulohazalar // O'zbek tili va adabiyoti, 2003. – №2.
2. Qosimova M. Badiiy nutq individualligining lingvistik xususiyatlari (Tog'ay Murod asarlari asosida): Filol. fanlari nomz... diss. Toshkent, 2007.
3. Vohidov E. She'r dunyosi. —T.: Adabiyot va san'at, 2001.
4. Vohidov E. Ishq savdosi. Saylanma. Birinchi jild. –Toshkent: Sharq, 2000.

